

HABIB SA'DULLA IJODIDA ONIY LIRIK KECHINMA

Ermanbetova Shohsanam Bozorboyevna

University of Business and Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrasi o'qituvchisi,

Gmail: shohsanamermanbetova49@gmail.com

Telefon: +998939442273

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoir Habib Sa'dulla she'riyati tahlil qilinib, she'r misralari, baytlari va bandlaridagi lirik qahramonga murojaat etish, oniy lirik kechinma orqali fikrni yana ham ochib berish mahorati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *intonatsiya, oniy lirik kechinma, intonatsion bo'lak, pauza, urg'u, nutq, xarakter.*

THE ART OF POETIC EXCLAMATION IN THE WORKS OF HABIB SADULLA

Ermanbetova Shohsanam Bozorboyevna

University of Business and Science

Teacher of the Department of Language and Literature Education,

Gmail: shohsanamermanbetova49@gmail.com

Phone: +998939442273

Abstract: *This article analyzes the poetry of the poet Habib Sa'dulla, and analyzes the skill of addressing the lyrical hero in the verses, stanzas and clauses of the poem, and further revealing the thought through a poetic exclamation (urge).*

Key words: *intonation, exclamation, intonation fragment, pause, emphasis, speech, character.*

O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmadning Habib Sa'dulla haqidagi chizgilarida g'azalning yaratilish tarixi haqida fikr yuritiladi.

Habib Sa'dulla o'zi haqida yozar ekan, adabiyotimizning taniqli ijodkorlari, shuningdek, Said Ahmad bilan hamsuhbat bo'lish va ularning saboqlarini olishdek imkoniyatga ega bo'lganligini ta'kidlagan edi. Balki Said Ahmad bilan shu suhbatlarning birida g'azalning yaratilishi haqida suhbatlashgan bo'lsalar ajab emas.

G'azalda lirik qahramon kechinmalari tabiat tasviri va peyzaj orqali ochib beriladi. Adib shunday yozadi: "...Gul yurti Namanganda bahor avjida...

Yul yoqasida jingalak soch bir yigit parishon turibdi. Uning hushi o'zida emas. Ikki ko'zi ko'chaning narigi betidan kelayotgan kelinchakda. Kelinchak ikki o'rim sochi

yerda sudralmasin uchun paxta pilik qo‘shib o‘rilgan sochini uchini jemferining ikki yon cho‘ntagiga solib qo‘ygan. Uning yurakka o‘t tashlaydigan ko‘zlari...

Avtobus bekatidagi ermaktalab yo‘lovchilar yigitning devonavor turishiga ajablanib qaraydilar.

Kelinchak shundoqqina shoirning yonidan o‘tib, sal naridagi o‘ng ko‘chaga burilib ketdi. Ko‘chayu bekatda qalampirmunchiq isi qoldi... Bu 1973-yilning avji bahori, peshin paytida ro‘y bergan edi”¹.

Bu voqea shoirning diqqat - e‘tiborini tortib, qalbu shuuriga o‘rnashib oladi, unga orom bermaydi, uning hayoti va faoliyatidagi o‘y surish, mulohaza yuritish muvozanatini buzadi. Bu oniy kechinma bo‘lib, u qanday favqulodda tug‘ilsa, xuddi shu tezlikda o‘tkinchi hamdir. Shu bois tajribali shoirlar oniy lirik kechinma tug‘ilgan paytda qo‘lga qalam olish imkoniyatini izlaydilar.

“Oradan to‘rt kun o‘tib, “Namangan haqiqati” gazetasida shoirning “Ko‘chamdan jonon o‘tganda” nomli g‘azali bosildi. Gazeta qo‘lma-qo‘l bo‘ldi...”²

Adabiyotshunos olim Erkin Xudoyberdiyev: “Ushbu g‘azal hayratomuz lutf va jozibaning, quvnoq yumorga yo‘g‘rilgan mubolag‘aning yorqin misolidir”³ - degan edi.

G‘azal quyidagi misralardan boshlanadi:

Taralgay mushk ila anbar

Ko‘chamdan jonon o‘tganda,

Izida tuproq o‘lgay zar,

Ko‘chamdan jonon o‘tganda⁴.

Ya‘ni lirik qahramon nazdida ko‘chadan jonon o‘tar ekan, “mushk ila anbar” taraladi. Izidagi tuproq oshiq nazdida go‘yo zarga aylanadi. Shoir o‘z hislarini qalamga ko‘chiradi. Fikrlarini hayotiy tafsillar bilan asoslashga intiladiki, g‘azalni o‘qiganimizda tabiiy lavhalarga hamohang bo‘lgan asosli vaziyat ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalarni jonlantirish, shaxslantirish orqali hosil bo‘luvchi tashxis san‘ati qo‘llangan ushbu parchada lirik qahramonning jonon ko‘chadan o‘tgandagi ruhiy holatini ifoda etadi:

Boshiga soyabon bo‘lmoq

Umidida oshib devor,

Butoqlar ta‘zim aylarlar

Ko‘chamdan jonon o‘tganda⁵.

¹ Аҳмад С. Кўчангдан яна жонон ўтпти //Худойбердиев Э. Ҳабиб Саъдулла. (Китоб муқаддимаси ўрнида) – Тошкент: Ижод дунёси, 2004. – Б. 3.

² Худойбердиев Э. Ҳабиб Саъдулла. –Тошкент: Ижод дунёси, 2004. – Б. 5.

³ Ўша асар. – Б. 86.

⁴ Саъдулла Ҳ. Кўчамдан жонон ўтганда. –Т: Камалак. 1992, – Б. 8.

⁵ Ўша асар. – Б. 8.

Daraxtlarning devor yonida ekilishi ular voyaga yetgach, devor osha ko'chaga egilib, soya berishi kabi hayotiy hodisa – peyzajni oniy lirik kechinma ta'sirida shoir quyidagicha jonlantiradi: "Jonon noz ila ko'chadan o'tib borar ekan, unga soyabon bo'lish orzusida daraxtu butoqlar devor osha insonlardek ta'zim qilmoqdalar". Qolaversa, xalqimizda "Qo'shning meva eksa, devorni pastroq ur" degan naql mavjudki, bu mahalliy kolorit bo'lganligi uchun biz misralarni tez va oson qabul qilamiz. Namanganga tashrif buyursangiz qishloq ko'chalari bo'ylab sayr qilar ekansiz, daraxtlar g'arq pishgan mevalarini devor osha egilib sizga tutadi go'yo. Xohlaganingizcha to'yib iste'mol qilishingiz mumkin. Daraxt egalari: "Eganda baraka bo'ladi!" – deya quvonishadi. Savat-savat uyingizga ham olib ketasiz. Elimiz juda mehmondo'st!

Keyingi misralar esa, lirik qahramon his-tuyg'ularining cheki yo'qligidan nishonadir:

Devorga jon ato etgay,
Vale toshlar erib ketgay.
Agar bir bor nigoh aylar,
Ko'chamdan jonon o'tganda⁶.

Ya'ni jonon bir bora nigoh aylasa, go'zalning jamolini tamosho qilish uchun devorga jon kiradi. Uning poydevoriga terilgan toshlar ham eriydi, deya mubolag'a qiladi shoir. "Toshlar erib ketgay" birikmasi orqali muhabbat va sevgi bor joyda yomonlik yo'q bo'lib ketadi, deyilayotgandek go'yo. Lekin o'z ma'nosida, hayotiy tahlil etsak, tosh erisa, devor qulashi aniq. Devor, albatta, ko'cha tomonga yiqiladi. Shoir nazdida, go'yo u yor tomonga qulaydi-yu, unga jon ato etilgandek tuyuladi. Bu jonlantirish san'atining namunasidir.

Shoir voqealar silsilasini davom ettirar ekan, ularning ketma-ketligini tashbehi silsilaiband san'atini qo'llash orqali bir biriga zanjir misoli bog'laydi. Oshiq ma'shuqaning jamolini xotirjam ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmoqlik uchun devor bo'lishni orzu qiladi:

Jamolini tomosho qilg'ali
Chiqqach devor o'lsam,
Kular holimga majnunlar
Ko'chamdan jonon o'tganda⁷.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, "devor bo'lmoqlik" iborasi "karaxt bo'lmoq", "o'zini yo'qotib qo'yish" ma'nolarini ham ifodalaydi. Ma'shuqaning husn-u malohatini ko'rgach, devor kabi karaxtu holi abgor bo'lgan oshiq yor poyiga yiqiladi, hatto majnuntollarga kulgu bo'ladi. Oshiqning holati majnunlardan ham abgorroqdir.

⁶ Саъдулла Ҳ. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 13.

⁷ Саъдулла Ҳ. Танланган асарлар. 2-жилд – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 13.

Shoirning oniy lirik kechinmalardan keyingi ruhiy holati bu misralarda istiora san'atini qo'llash orqali juda aniq va ravshan ochib berilgan.

Ijodkorning boshidan o'tkazgani oddiy fikrlarni tashkil etishi mumkin. Lekin u o'z ijodiga mosini tanlaydi, eng muhim va poetik qimmatga ega bo'lgan qirralarni ajratadi. Saralangan qirra lirik kechinma oqimini o'zida tashuvchi, uning u yoki bu yo'nalishidagi tebranishlarini ifodalovchi badiiy borliqqa aylanadi⁸. She'rdagi voqelik shoirning o'z boshidan kechirganlari bo'lganligi bois lirik qahramon shoirning o'zidir. Endi lirik kahramon umid ila ertangi kunni kutadi:

Tikibsan yo'lida jonni,
Habib, bas, noumid bo'lma,
Tun ortidan kelur kunlar,
Ko'chamdan jonon o'tganda⁹.

Yuqoridagi baytlar so'ngida keltirilgan "Ko'chamdan jonon o'tganda" radifi shoirona vaziyatni namoyon etish, his-hayajonni to'kib-solish, shu voqea mohiyatini ochish yohud muayyan an'anaviy tushuncha-tamsillar, obraz, obraz-ifodalar atrofida suxansozlik qilish, lutf ko'rsatish niyatining mevasidir.

Oniy lirik kechinmalarni saqlash uchun uni she'rga aylantirishdan o'zga chora yo'q. O'zbek she'riyatining aksariyat sara asarlari bevosita oniy lirik kechinma og'ushida yaratilgan asarlardir. Shu bois Habib Sa'dullaning "Ko'chamdan jonon o'tganda" g'azali muxlislar qalbini go'zal hislarga to'ldiraveradi. G'azalda qo'llangan tabiat tasvirining go'zal ifodasi shoirning jo'shqin va samimiy e'tirofi zamiriga singib borarkan, o'quvchi undan shoir shaxsiyatining, fikriyoti va lirik qahramon hissiyotining sirini anglashga intiladi, bu esa she'riyatning ajib sehri samarasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Белинский В.Г. Сочинения Александра Пушкина. Полн.собр.соч. Т.7. – М.: 1955. – С.271-272.
2. Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.191.
3. Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.1- жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.59.

⁸ Саримсоқов Б. И. Бадийлик асослари ва мезонлари. -Тошкент: 2004. – Б. 87.

⁹ Саъдулла Ҳ. Танланган асарлар.2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 13.